

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 358 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmuratovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуловна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуловна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohbnazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабижанович, Бобожонов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbeyeve Dilnoza Darvishaliyevna	
Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms	192
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
Aloqa korxonalari xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish.....	197
Tursunova Mastura Taxirovna	
Developing effective marketing strategies for tourism development in Uzbekistan	204
Fayzullayev Nodirbek Baxtiyor o'g'li	
Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	208
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzayevich	
Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish.....	212
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
Цифровизации системы стратегического управления предприятий нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	217
Азимов Кабул	
Индекс устойчивости региона против бедности (poverty resilience index – pri): на примере бухарской области Республики Узбекистан (2024)	223
Мухамедова Мадинабону Мехридиновна	
Экономические аспекты внедрения цифровых технологий в полиграфии.....	230
Юсупхужаева Шахноза Музаффар кизи	
Mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish va barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	233
Sattorov R. A.	
Web3'da real vaqt ma'lumot sinxronizatsiyasi — tarmoqdagi kechikishlar va ularni kamaytirish texnologiyalari.....	240
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Tijorat banklarining likvidligini tartibga solish amaliyotining dolzarb masalalari	246
Sayfutdinov Bobur Nodirovich	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	255
Yuldoshev Otabek Jovli o'g'li	



Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo'llari.....	261
Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich	
Innovatsion yondashuvlar orqali davlat xaridlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish	266
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
Hududlarda barqaror rivojlanish nazariyalarining sanoat korxonalari faoliyatiga ta'siri	270
Sadriddinov Baxtiyor Shamshiddin o'g'li	
Turizm platformalarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy kontent va raqamli marketing strategiyalarining integratsiyalashgan yondashuvi.....	277
Dadamirzayev Sarvarbek Ulug'bek o'g'li	
Bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish yo'nalishlari.....	283
Almosova Shohista Jobirovna	
Модели организации казначейства в ведущих стран мира.....	288
Сагдиев Равшан Сайфуллаевич	
Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini nazariy jihatlar va rivojlantirish yo'llari.....	302
B.Sh.Shadmanov	
Qurilish sanoatini rivojlantirishda tabiiy resurslardan kompleks foydalanishning ahamiyati.....	307
Yuldasheva Mexrunisa Kasimjan qizi	
Yangi O'zbekistonning "Yashil" iqtisodiyoti: qiyosiy tahlilning asosiy tendentsiyalari	313
Ro'ziyeva Dilfuza Toshtemirovna	
Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarning muammolari va uni bartaraf etish yo'nalishlari.....	318
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
Namangan viloyatining Farg'ona vodiysi qo'shni hududlari bilan iqtisodiy hamkorligining hozirgi holati va rivojlantiruvchi omillari	323
Sattarov R.A.	
Desentralizatsiyalangan ma'lumot almashish protokollari: IPFS, Filecoin va Arweave tahlili	328
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Transport xizmatlari ko'rsatish biznes-jarayonlarini raqamli transformasiya talablari asosida takomillashtirish.....	333
Komilov Asror Akmalovich	
Empowering the Future: Assessing the Role of Automation, Internet of Things (IoT), and Demand Management in Enhancing Energy Efficiency of Smart Grids.....	338
Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish tajribalari (xalqaro va mahalliy misollar)	345
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
Zamonaviy sharoitlarda uy-joy fondini boshqarishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish	352
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna, Karimova Aziza A'zamiddin qizi	



ZAMONAVIY SHAROITLARDA UY-JOY FONDINI BOSHQARISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Inoyatova Durdona Shoxaydarovna

Renessans ta'lim universiteti,
"Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti,
maxmur77@mail.ru,
ORCID: 0009-0005-2163-0858

Karimova Aziza A'zamiddin qizi

mustaqil tadqiqotchi.

Annotatsiya: Maqola O'zbekistonda uy-joy fondini boshqarishda sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: uy-joy fondi, moliyaviy mexanizm, sug'urta, sug'urta qiymati, titul sug'urtasi.

Abstract: This article addresses the issues of improving insurance mechanisms in the management of housing stock in Uzbekistan.

Key words: housing stock, financial mechanism, insurance, insurance value, title insurance.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования механизмов страхования при управлении жилищным фондом в Узбекистане.

Ключевые слова: жилищный фонд, финансовый механизм, страхование, страховая стоимость, титульное страхование.

KIRISH

Hozirgi kunda uy-joy fondidan foydalanishni boshqarish tizimidagi eng jiddiy muammolardan biri xususiy mulk bo'lgan obyektlarning qo'shni yoki uy-joy fondiga xizmat ko'rsatuvchi subyektlarning harakatlari va ularning oqibatlaridan himoyalanmaganligi hisoblanadi. Shu sababli, uy-joy fondidan foydalanish tizimida sug'urta instituti alohida ahamiyat kasb etishi lozim.

Umuman olganda, sug'urta tushunchasi odamlar va ularning faoliyatini turli xil xavf-xatarlardan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy munosabatlarning o'ziga xos turini anglatadi. Demak, sug'urta - bu sug'urta qildiruvchi va sug'urtalovchi o'rtasidagi munosabat bo'lib, unda jismoniy va yuridik shaxslarning (sug'urta qildiruvchilarning) mulkiy manfaatları muayyan hodisalar (sug'urta hodisalari) yuz berganda, ular to'lagan sug'urta badallaridan shakllanadigan pul mablag'lari hisobidan himoya qilinadi.

Bir binoda ko'p sonli mulkdorlarning paydo bo'lishi, ularni turar-joyini saqlash usullari, uning saqlanishini ta'minlash va binolarning muhandislik tizimlari eskirishi natijasida yuzaga keladigan zararlarni qoplash manbalarini aniqlash masalalarini birgalikda hal qilishga majbur etadi. Bu esa, o'z navbatida, binolarning avariya holatiga tushish xavfini oshiradi.

Avariyalar, yong'inlar va texnogen portlashlar oqibatida zarar ko'rgan uy-joylarni tiklash xarajatlari milliardlab so'mni tashkil etadi. Uy-joy kommunal sohasiga yo'naltirilayotgan moliyaviy mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun zararni qoplashning qo'shimcha moliyaviy manbalarini jalb qilish lozim. Bunga uy-joy sug'urtasi yordam beradi.

Uy-joy fondining eskirishi turar-joy binolari va muhandislik infratuzilmasi obyektlarining ishonchligi pasayishiga, uy-joylarning avariya holatiga yoki yaroqsiz ahvolga tushishiga olib keladi. Uy-joy fondini qayta tiklash muammosini uy-joy sug'urtasi orqali moliyaviy mablag'larni jalb qilish yo'li bilan hal etish mumkin.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uy-joy fondini boshqarish kompaniyalari tomonidan xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalarni boshqarish samaradorligini takomillashtirish, sohada bozor munosabatlarini chuqurlashtirish hamda soha korxonalarida yuzaga keluvchi risklarni boshqarish borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan Eugene N.Gurenko & Olivier Mahul, Howard Kunreuther, Carolyn Kousky, Swenja Surminski, W.J.Wouter Botzen, J. David Cummins kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu olimlarning tadqiqot ishlarida uy-joy fondini majburiy sug'urtasi keng qamrov va tez to'lovni ta'minlashi, xonadon egalarining past ehtimolli-yuqori zararli xatarlarni e'tiborsiz qoldirishiga sabab bo'ladigan xulqiy og'ishlar, kam ta'minlanganlar uchun vaucherlar, shuningdek ko'p yillik polislar taqdim etish, manzilli subsidiyalar masalalari muayyan darajada nazariy va uslubiy jihatdan o'rganilgan.

Mamlakatimizda uy-joy fondini boshqarish kompaniyalari tomonidan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish, sohada bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, xizmatlar sifatini boshqarish hamda boshqaruv jarayonlarini moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari R.I.Nurimbetov, A.D.Metyakubov, V.U.Yodgorov, D.Ya.Butunov, T.A.Xasanov, S.K.Salaev, I.X.Davletov, A.S.Sultanov, F.Ergashev, D.A.Berdiyeva, R.N.Xolmurodov kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati, funksiyalari, ishtirokchilari va uni amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolarni ilmiy jihatdan o'rganish va xulosalar chiqarish, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni o'rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash usullaridan keng foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda uy-joy sug'urtasining ijtimoiy ahamiyati tobora ortib bormoqda. Uy-joy kommunal sohasini moliyalashtirish shartlaridan qat'i nazar, fuqarolarning uy-joyga bo'lgan huquqlari sohasidagi ijtimoiy kafolatlarning saqlanib qolishi qonun bilan tartibga solinadigan shartnomaviy munosabatlarga asoslanadi. Bu esa uy-joylarni sug'urtalash tizimini to'g'ri tashkil etishga bog'liq.

Sug'urta himoyasi tizimi aholining to'lov qobiliyati darajasini va mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olishi lozim, bu esa sug'urtalanuvchilarni sug'urta badalining qulay miqdori bilan jalb qilish imkonini beradi.

Sug'urta himoyasiga bo'lgan ehtiyoj munitsipal uy-joy fondi binolaridagi turar joylarning fuqarolar xususiy mulkiga aylanishi sharoitida amalda shakllandi. Bir turar joyda bir necha mulkdorning paydo bo'lishi uy-joyni saqlash shakllari, uning saqlanishini ta'minlash, shuningdek, uy-joyning eskirishi va avariya xavfining oshishi bilan bog'liq holda yuzaga keladigan zararni qoplash manbalarini aniqlash masalalarini birgalikda hal etishga olib keladi.

Fuqarolarning mulki bo'lgan turar joy shikastlangan taqdirda mulkiy yo'qotishlar kvartira egalarining shaxsiy mablag'lari hisobidan qoplanishi lozim. Turar joylarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash munitsipal uy-joy fondining binolari va ijara shartnomasi asosida egallab turilgan turar joylar byudjet mablag'lari hisobidan, davlat uy-joy fondining uylari va kvartiralar esa ular xo'jalik yurituvda yoki operativ boshqaruvida bo'lgan korxonalar va muassasalar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Mulkiy yo'qotishlarni qoplashning eng samarali vositasi sifatida sug'urtadan foydalanishning maqsadga muvofiqligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Birinchidan, tabiiy ofatlar yoki favqulodda vaziyatlar oqibatida uy-joylar vayron bo'lganda yoki shikastlanganda fuqarolarning uy-joy huquqlarini ta'minlashning iqtisodiy mexanizmini yaratish; uy-joylar vayron bo'lganda yoki shikastlanganda sug'urtalanuvchilarga yetkazilgan mulkiy zararlarni o'z vaqtida va to'liq qoplash kafolatlarini berish;

Ikkinchidan, tabiiy ofatlar yoki favqulodda vaziyatlar yuz berganda shahar uy-joy fondiga yetkazilgan zararni qoplash uchun aholi mablag'lari va boshqa byudjetdan tashqari manbalarni jalb etish imkoniyati;

Uchinchidan, sug'urtada ishtirok etayotgan uy-joyning alohida egalari va foydalanuvchilariga yetkazilgan zararni taqsimlash;

To'rtinchidan, sug'urta fondining bo'sh mablag'larini uy-joylarni ta'mirlash, qayta qurish va yangi uy-joylar qurish maqsadlarida uy-joy sohasiga yo'naltirish imkoniyati.


Odamlar ma'lum vaqtgacha o'z uy-joylarining qadri haqida o'ylamasdan, kvartira sug'urtasini rasmiylashtirishga shoshilmaydilar. Faqat uy-joy shoshilinch ta'mirlashni talab qiladigan yoki butunlay yaroqsiz holga keladigan ko'ngilsizliklar yuz bergandagina, kvartira hayot sifati keskin pasayadigan qal'a ekanligi ayon bo'ladi. Bunday vaziyatda hamma narsani avvalgi holatiga qaytarish uchun mablag' yetishmasligi mumkin. O'z uy-joyi uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha xavf-xatarlarning, shuningdek, o'zining uchinchi



shaxslarning mol-mulkiga, hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazish ehtimolining oldini olish imkonsiz. Mol-mulkni sug'urtalash dasturlari moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirib, murakkab hayotiy vaziyatlardan sharaf bilan chiqish imkonini beradi.

O'zbekistonda uy-joy fondini sug'urtalash tizimi rivojlanish bosqichida bo'lib, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmagan. Bu esa, aholining mol-mulk xavfsizligi, kommunal barqarorlik va urbanizatsiyalashgan shahar muhitining uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun xavf tug'diradi. Yuqorida ko'rib chiqilgan yo'nalishlar asosida kompleks yondashuv orqali uy-joy fondini sug'urtalash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda O'zbekistonda uy-joy fondining umumiy hajmi va sug'urtalangan ulushi juda ham past ko'rsatkichga ega. 1-rasmda 2020–2024 yillar oralig'ida uy-joy fondining umumiy hajmi va sug'urtalangan ulushining o'sish tendensiyasi aks ettirilgan.



1-rasm. O'zbekistonda 2020–2024 yillar oralig'ida uy-joy fondining umumiy hajmi (mln m²) va sug'urtalangan ulushining o'sishi (foizda) tendensiyasi.

Bugungi kunda nafaqat jamiyatimizning badavlat qatlamlari, balki kam ta'minlangan kishilar ham o'z uy-joylarini sug'urta qilishmoqda. Ilgari asosan avtomobillar sug'urtalangan bo'lsa, endi odamlar o'z kvartiralarini bilan ham ushbu sug'urta turiga xos bo'lgan xatarlar bilan bog'liq ko'plab holatlar sodir bo'lishi mumkinligini tushunib yetishmoqda.

Bu xatarlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- yong'in va uni bartaraf etish bo'yicha qonuniy harakatlar;
 - har qanday sababga ko'ra gaz portlashi;
 - ichki suv oqimi, isitish, suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimlaridagi nosozliklar;
 - tabiiy ofatlar (kuchli shamol, bo'ron, quyun, shiddatli shamol va ular bilan birga keladigan yog'ingarchiliklar);
 - uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari (o'g'irlik);
 - uchinchi shaxslarning (qo'shnilar, begona kishilar va boshqalar) sog'lig'i va/yoki mol-mulkiga yetkazilishi
- mumkin bo'lgan zarar uchun fuqarolik javobgarligi.

Sug'urtaning quyidagi shakllari mavjud:

Birinchidan, majburiy sug'urta bo'lib, bunda davlat sug'urtalanuvchilarning muayyan doirasi tomonidan sug'urta to'lovlarini amalga oshirish majburiyatini belgilaydi. Sug'urtaning majburiy shakli sug'urta himoyasining ustuvor obyektlariga tatbiq etiladi, ya'ni moddiy zararni qoplash yoki boshqa pul yordamini ko'rsatish zarurati nafaqat muayyan jabrlanuvchining, balki jamiyatning manfaatlariga ham daxldor bo'lganda qo'llaniladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda majburiy sug'urtaga quyidagilar misol bo'la oladi: tibbiy sug'urta; harbiy xizmatchilarni sug'urtalash; yo'lovchilarni sug'urtalash; avtofuqarolik javobgarligini sug'urtalash; ayrim mutaxassislar uchun kasbiy javobgarlikni sug'urtalash.

Ikkinchidan, ixtiyoriy sug'urta qonun kuchiga ko'ra ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi. Qonun ixtiyoriy sug'urta qilinadigan obyektlarni va sug'urtaning eng umumiy shartlarini belgilashi mumkin, aniq shartlar esa



sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqiladigan sug'urta qoidalari bilan tartibga solinadi. Zamonaviy sharoitlarda xonadonlarni ixtiyoriy sug'urtalashning quyidagi turlari mavjud:

1. Konstruktiv elementlarni sug'urtalash, bu devorlar, orayopmalar va simlar shikastlanganda to'lovlar olish imkonini beradi. Ushbu sug'urta ko'pincha ichki pardojni sug'urtalash bilan birgalikda taklif etiladi. Sug'urtaning bu turi uchun xonadon xususiyashtirilgan bo'lishi shart. Sug'urta hodisalariga quyidagilar kiradi: yuk ko'taruvchi konstruksiyalarning qulashi, uchinchi shaxslar harakati, yong'in, tabiiy ofat, avariya yoki portlash natijasida devorlar va orayopmalarining shikastlanishi. Biroq, agar zarar sug'urtalanuvchining aybi bilan yuz bersa, kompensatsiya to'lanmaydi.

Odatda sug'urta shartnomasi xonani oldindan ko'zdan kechirishsiz tuziladi. Sug'urta narxi xonadonning bozor qiymati asosida belgilanadi (odatda qiymatning 0,25 foizidan 0,6 foizigacha). Agar uy eskirgan bo'lsa, narx oshirilishi mumkin. Shuningdek, qayta rejalashtirish mavjudligi, ayniqsa u noqonuniy ravishda amalga oshirilgan bo'lsa, tarifning oshishiga sabab bo'ladi.

2. Kvartiraning ichki bezagi va muhandislik jihozlarini sug'urtalash. Ichki bezakka deraza romlari, eshik kesaklari, eshiklar, deraza va eshik oynalari, ko'zgular va ko'zgu qistirmalari, o'rnatilgan mebel va texnika, pol, shift, devorlarning pardozi, santexnika jihozlari kiradi. Muhandislik jihozlariga kommunikatsiya tarmoqlari, ya'ni gaz quvuri, kanalizatsiya, isitish tizimi, signalizatsiya, telekommunikatsiyalar kiradi. Sug'urta baxtsiz hodisalar, yong'inlar, tabiiy ofatlar va uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy xatti-harakatlari natijasida yuqorida ko'rsatilgan elementlardan biri yoki bir nechta shikastlangan taqdirda tovon to'lovlarini olish imkonini beradi. Sug'urtaning bu turi ko'pincha mol-mulk va konstruktiv elementlar sug'urtasi bilan birgalikda taklif etiladi.

Bunday sug'urtaning narxi kommunikatsiya va bezak elementlarining soni hamda ularning umumiy qiymatiga bog'liq. O'rtacha hisobda u umumiy qiymatning 0,3 foizidan 1,5 foizigacha qismini tashkil etadi.

3. Ko'chmas mulk egasining fuqarolik javobgarligini sug'urtalash, bu uchinchi shaxslarning (odatda qo'shnilarining) hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash imkonini beradi. Sug'urta hodisalariga yong'in, avariya, suv toshqini, yuk ko'taruvchi konstruksiyalar - devorlar va orayopmalarining qulashi yoki shikastlanishi kiradi. Ba'zi sug'urta kompaniyalari sug'urta qildiruvchining e'tiborsizligi tufayli sodir bo'lgan sug'urta hodisalarini uchun ham kompensatsiya to'laydi.

Sug'urta qiymati sug'urta summasiga, ko'chmas mulkning texnik holatiga va foydalanish xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Sug'urta summasi miqdori tomonlarning kelishuviga asosan belgilanadi, narx esa o'rtacha maksimal sug'urta summasining 1-1,5 foizini tashkil etadi. Xavf omillari (masalan, murakkab ta'mirlash zarur bo'lsa) bu miqdorni oshirishi mumkin. Shu bilan birga, shartnoma ma'lum muddatga yoki ta'mirlash ishlari davriga tuzilishi mumkin.

4. Titul sug'urtasi - ko'chmas mulkka egalik huquqini yo'qotish natijasida mol-mulkni yo'qotish xavfini sug'urtalashdir. Bugungi kunda aynan titul sug'urtasi ko'chmas mulk sotib olishda o'z mulkiy manfaatlarini himoya qilishning eng samarali usuli hisoblanadi. Shu sababli, ipoteka olishda titul sug'urtasi majburiy deb hisoblanadi. Eng ko'p uchraydigan sug'urta hodisalariga quyidagilar kiradi: noto'g'ri rasmiylashtirilgan yoki soxta hujjatlardan foydalangan holda bitimni rasmiylashtirish, noqonuniy mulkdordan uy-joy sotib olish, tahdid yoki shantaj ta'sirida tuzilgan bitim.

Sug'urta qiymati ko'chmas mulkning bozor qiymati va sug'urta muddatiga asosanib hisoblanadi. Sug'urtaning minimal muddati 1 yilni tashkil etadi. O'rtacha 3 yillik sug'urta tariflari uy-joy qiymatining 1,5 foizidan 3 foizigacha bo'lgan qismini tashkil qiladi. Sug'urta hodisasi sug'urtalanuvchining mulk huquqi bekor qilinishi to'g'risidagi sud qarori kuchga kirgandan so'ng amal qila boshlaydi. Shartnoma tuzishdan oldin sug'urta kompaniyalari, odatda, bitimning qonuniyligini sug'urta oldi ekspertizasidan o'tkazadilar. Shartnoma amal qilish muddati davomida sug'urtalovchilar sug'urtalangan ko'chmas mulkka nisbatan nizolar yuzaga kelganda huquqiy yordam ko'rsatadilar.

Shunday qilib, ko'p kvartirali uylardagi turar-joylarni sug'urtalash tariflari ko'chmas mulk qiymatining o'rtacha 0,18 foizidan 1,2 foizigacha bo'lgan qismini tashkil etadi va sug'urta shartlariga bog'liq bo'ladi. Bunda uyning yoshi, devor va shift materiallari, gaz ta'minoti va undan foydalanish, qavat, foydalanish tartibi e'tiborga olinadi. Uy-joy mulkini sug'urtalash uchun eng muhimi temir eshik, domofon, qo'riqchi yoki eshikbon, shuningdek, signalizatsiya tizimining mavjudligi hisoblanadi.

O'zbekistonda uy-joy sug'urtasidagi asosiy farqlar quyidagilardan iborat: birinchidan, avariya holatidagi va ko'p mulkdorli kommunal kvartiralarining mavjudligi. Ikkinchidan, aholining sug'urta dasturlari haqida ma'lumotining yetishmasligi. Fuqaro o'zining kvartira, uy va unda joylashgan mol-mulk egasi ekanligini, hamda kutilmagan va noxush hodisalar tufayli bularning barchasidan ajralishi mumkinligini anglasa-da, baribir turar joyining konstruktiv elementlarini sug'urtalamaydi. Mulkdorlar sug'urta hodisasi yuz bermaydi yoki aksincha bo'lsa, davlat yordam beradi, deb o'ylashadi. Haqiqatan ham, agar sug'urta hodisasi ommaviy yoki g'ayrioddiy tus olsa, bu voqeaga ommaviy axborot vositalari e'tibor qaratishi va davlat yordam berishi ehtimoli yuqori. Biroq, afsuski, hodisalarining asosiy qismi qo'shnilar tomonidan yoki kvartira ichidagi kommunikatsiyalardagi nosozlik tufayli sodir bo'ladi. Bunday holatlarda javobgarlik hodisa aybdoriga yuklanadi va ko'pincha bu vaziyatlar uy-joy



fondiga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan sudda yakunlanadi. Shu sababli, kvartirani ekspluatatsiya qilish jarayonida uchinchi shaxslarga zarar yetkazganlik uchun javobgarlikni sug'urtalash ham maqsadga muvofiq, ayniqsa pastki qavatdagi qo'shni yaqinda ta'mirlash ishlarini amalga oshirgan bo'lsa.

Xonadonlarni sug'urtalashning xorijiy tajribasi misolida shuni ta'kidlash mumkinki, bir necha yillar davomida bu masalada Germaniya yetakchilik qilmoqda. U yerda uy-joy sug'urtasi yig'ilgan sug'urta mukofoti bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi va avtomobil sug'urtasidan keying o'rinda turadi. Buning sababi shundaki, deyarli barcha uy-joylar bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib olinadi va kreditning majburiy shartlaridan biri sotib olinadigan uy yoki kvartirani sug'urtalash hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda keltirilgan xorijiy tajribalar uy-joy fondini sug'urtalash tizimini takomillashtirishda O'zbekiston uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Har bir mamlakat tajribasiga asoslanib berilgan izohlar quyidagicha ilmiy asoslanadi (1-jadval).

1-jadval. Uy-joy fondini boshqarishda uni sug'urtalashning xorijiy tajribalari.

Mamlakat	Izoh
Germaniya	Germaniyada uy-joy sug'urtasi ko'proq erkin tanlovga asoslangan bo'lsa-da, aholining yuksak huquqiy madaniyati, moliyaviy savodxonligi va infratuzilma xavfsizligiga e'tibori sug'urtaning keng ommalashuviga olib kelgan. Turar-joyi yong'in, suv toshqini, tabiiy ofatlar va hatto uchinchi tomon mas'uliyati (masalan, suv sızıntisi tufayli qo'shniga zarar yetishi) kabi ko'plab xavflardan himoya qiluvchi xizmatlar mavjud. Bu esa O'zbekistonda sug'urtalovchi tashkilotlar tomonidan xizmatlar spektrini kengaytirish, mijoz ehtiyojlarini puxta o'rganish va moslashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqishga ilmiy asos bo'ladi.
Janubiy Koreya	Janubiy Koreyada raqamli texnologiyalar yordamida avtomatlashtirilgan sug'urta tizimlari joriy etilgan. "InsurTech" (Insurance + Technology) asosida ishlovchi platformalar aholiga sug'urtani onlayn rasmiylashtirish, to'lov qilish va zarar ko'rsatkichlarini tezda baholash imkonini beradi. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida mavjud byurokratik to'siqlarni kamaytirish, xizmat ko'rsatishda shaffoflikni ta'minlash va texnologik yondashuvni joriy etish uchun ilmiy asosdir. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot strategiyasi doirasida ahamiyati yuqori.
Rossiya	Rossiyada uy-joy fondini sug'urtalashda davlat va hududiy dasturlar birgalikda ishlaydi. Masalan, tabiiy ofatlarda zarar ko'rgan uylarga nisbatan hukumat subsidiya ajratadi yoki sug'urta mukofotining bir qismini qoplaydi. Bu tizim O'zbekistonda ham mahalliy hokimiyatlar va davlat ishtirokidagi dasturlar orqali aholining kam ta'minlangan qatlamlarini sug'urta bilan qamrab olishni rag'batlantirishi mumkin. Ijtimoiy himoya va bozor mexanizmlarining uyg'unlashuvi sog'lom sug'urta bozori shakllanishiga xizmat qiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, uy-joy sug'urtasi tizimi samaradorligi:

- xizmatlarning diversifikatsiyasi;
- raqamli texnologiyalardan foydalanish;

davlat-xususiy sheriklik yondashuvi kabi omillar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda bu jihatlarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali uy-joy sug'urtasining tashkiliy-iqtisodiy va texnologik mexanizmlari sezilarli darajada takomillashtirilishi mumkin.

Ko'p kvartirali uylardagi xonadonlar mulkdorlarining mulkiy huquqlarini himoya qilishni ta'minlash, turar joylar, noturar joylar va umumiy mulk obyektlarining saqlanishini kafolatlash, shuningdek, xizmat ko'rsatish yoki ishlarni bajarish natijasida shikastlangan obyektlarga zarar yetkazilganda boshqaruvchi va pudrat tashkilotlarining tiklash xarajatlarini kamaytirish maqsadida, bizningcha, uy-joy fondini majburiy sug'urta qilishning quyidagi variantlarini ko'rib chiqish lozim:

- mulkdorning mol-mulkini sug'urta qilish;
- boshqaruvchi va pudratchi tashkilotlarning javobgarligini sug'urta qilish.

Mulk egasining mol-mulkini sug'urtalash zarur, chunki uy-joy fondining buzilishi va yo'q bo'lishiga olib keladigan ko'plab hodisalarning kutilmaganligi sababli, mulk egasi o'z ixtiyoridagi mablag'lar va kuchlar bilan uy-joy fondini saqlash va asrash bo'yicha majburiyatlarini bajarishda qiyinchiliklarga duch keladi, ba'zan esa buni amalga oshirish imkonsiz bo'ladi.

Toshkent shahridagi turar-joylarni sug'urta hodisalari tahlili natijalariga ko'ra, eng katta ulushni turar-joy shikastlanishining quyidagi sabablari tashkil etadi:

- suv ta'minoti tizimidagi nosozliklar (40%);
- oqava suv tizimi (kanalizatsiya)dagi nosozliklar (15%);
- isitish tizimidagi nosozliklar (22%);
- yong'in va uni o'chirish oqibatlar jami 18 foizni tashkil etadi.



Shunday qilib, suv ta'minoti, oqava suv va isitish tizimlaridagi nosozliklar natijasida uy-joyga zarar yetishi ehtimoli eng yuqori (bunday sug'urta holatlari jami 77 foizni tashkil etadi).

Bizning fikrimizcha, eng ko'p uchraydigan va uy-joy fondiga eng ko'p zarar yetkazadigan, mulk egasining mol-mulkini majburiy sug'urtalash lozim bo'lgan xavflar ro'yxatiga quyidagilarni kiritish zarur:

- suv ta'minoti tizimidagi nosozliklar;
- isitish tizimidagi nosozliklar;
- oqava suv tizimi (kanalizatsiya)dagi nosozliklar.

Sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida sug'urta qildiruvchining uy-joy fondini, turar joyini, shuningdek shaxsiy mol-mulkini shikastlanish yoki yo'q bo'lishdan saqlash bilan bog'liq mulkiy manfaati sug'urta obyekti hisoblanadi. Uy-joy fondini sug'urtalash davlatdan sug'urtaning ushbu turini amalga oshirish uchun litsenziya olgan ixtisoslashtirilgan sug'urta tashkiloti tomonidan sug'urta qildiruvchining o'z mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi lozim.

Uy-joy fondini sug'urtalashning ushbu turini joriy etishdan asosiy maqsadlar quyidagilardir:

- sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida uy-joy fondining turar joylari yo'q bo'lgan yoki shikastlangan taqdirda zararni qoplashni ta'minlovchi kafolatlar tizimini yaratish;
- mablag'lari uy-joy fondiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hodisalarning oldini olish va bunday hodisalardan keladigan zararni kamaytirish chora-tadbirlariga sarflanadigan ixtisoslashtirilgan jamg'armaning pul mablag'larini shakllantirish imkoniyatini ta'minlash;
- foydalanilmagan pul mablag'larini uy-joy fondini kapital ta'mirlashga yo'naltirish.

Uy-joy fondini sug'urta himoyasini amalga oshirishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat bo'lishi shart:

- sug'urta qildiruvchining sug'urta hodisasi yuz berishi natijasida ko'rilgan zararning sug'urta qoplamasiga bo'lgan huquqini kafolatlash;
- sug'urta subyektlarining uy-joy fondi saqlanishidan iqtisodiy manfaatdorligini ta'minlash;
- uy-joy fondining turar joylarini majburiy tartibda sug'urtaga qabul qilish.

Avariya holatidagi, shuningdek buzilishi yoki qayta jihozlanishi lozim bo'lgan turar joylardan iborat uy-joy fondining qismi sug'urtaga qabul qilinmasligi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida o'tkazilgan tahlillar va tadqiqotlar natijasida xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda uy-joy fondini sug'urtalash tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar orqali amalga oshirilishi lozim:

- Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va aholining ijtimoiy himoyasini oshirish;
- Sug'urta xizmatlarini raqamlashtirish, mobil va onlayn texnologiyalar orqali aholiga yaqinlashtirish;
- Aholi orasida sug'urta madaniyatini shakllantirish va keng ko'lamli targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish;
- Uy-joyni ipoteka asosida sotib olayotganlar uchun majburiy sug'urta shartlarini joriy etish;
- Sug'urta kompaniyalari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va xizmatlar sifatini oshirish.

Mazkur yo'nalishlar uy-joy fondi boshqaruvining moliyaviy barqarorligini oshiradi va ofatlardan so'ng tiklanish jarayonini tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Практика реформы жилищно-коммунального комплекса: Аналит. докл. / Андрианов В.В., Аскеров Э.Н., Гордеев Д.П. и др. / Под общ. ред. С.Б. Стваева; Фонд «Институт экономики города». — М., 2004. — 189 с.
2. Петухов А.И. Организационно-экономический механизм управления эксплуатацией жилищного фонда в городе. Диссертация на соискание учёной степени кандидата экономических наук, Санкт-Петербург — 2010г.
3. A.U.Burxonov, X.Jamolova. O'zbekistonda sug'urta bozorining rivojlanishining hozirgi holati tahlili. "Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda sug'urtaning roli: tendensiyalar, muammolar va yechimlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, Toshkent, 2023-yil 16-noyabr.
4. <http://www.prostrahovanie.ru/ras/faq/catalogue/properties/kvart/risk/> электронный ресурс.
5. www.stat.uz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>